



ZARDUSHTIYLIK TALIMOTI BO'YICHA DUNYO OLIMLARINING ILMIY IZLANISHLARI

*Nurumaxamatova Zilola Tohir qizi
Nizomiy nomidagi TDPU tarix fakulteti
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zardushtiylik dini xususan “Avesto” kitobining dunyo olimlari tomonidan o’rganilishi va shu sohada olib borilgan ilmiy izlanishlar yoritib berilgan

Kalit so’zlar: Avesto, zardushtiylik, pasis, goh, vendida, Zent-Avesta

Аннотация: В этой статье будет освещена религия зороастризма, в частности, изучение мировыми учеными книги “Авеста” и научные исследования в этой области.

Ключевые слова: Авеста, зороастризм, пасис, гох, вендиды, зент-Авеста

Annotation: This article will cover the religion of Zoroastrianism, in particular, the study of the book “Avesta” by scientists around the world and scientific research in this area

Key words: Avesto, Zoroastrianism, pasis, goh, vendida, Zent-Avesta

Islom dini kirib kelgunga qadar O’rta Osiyo hududlarida yakkaxudolikka asoslangan zardushtiylik dini ustivorlik qilar edi. Zardushtiylik va uning muqaddas kitobi hisoblanmish “Avesto” bo’yicha juda ko’p ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu kabi izlanishlar jarayonida dunyo olimlari bilan bir qatorda O’zbekistonlik tarixchilar ham ishtirok etayotgani ajablanarli hol emas. Buning asosiy sababi zardushtiylik va uning talimoti O’zbekiston tarixinining ajralmas bir qismi ekanligidir. Zardushtiylik va Avestoshunoslik jahon hamjamiyati etiboriga molik masala hisoblanadi.

Hozirgi kunda dolzarb deb topilgan bazi bir muamolar zardushtiylar etiqodi, hususan “Avesto”da ham o’z aksini topgan. Zardushtiylarda muqaddas deb hisoblangan olov, tuproq, suv va havo hayotning asosiy omili deya etirof etilgan. Bir so’z bilan aytadigan bo’lsak, zardushtiylikda ekologiyani asrashga juda katta etibor qaratilgan. Hozirda butun dunyoning dolzarb muammolarning eng kattasi, aynan ichishga yaroqli suvlarning kamayib borishi va kislarod manbayi bo’lgab o’rmonlarning qisqarishi bilan harakterlanadi. Ushbu muammolarning yechimini izlash maqsadida tarixchilar uzoq o’tmishtga nazar tashlashni joiz deb topishadi.



XX asr oxiriga kelib G'arb va Sharqning Avestoshunos olimlari katta yutuqlarga erishdilar. Avestoning saqlab qolning qismlarining barchasi zent va pahlaviy tillaridan qilingan tarjimalarda nashr etildi. Ushbu yodgorlikni tarixiy, falsafiy, lingvistik jihatdan tahlil qilish metodlari ishlab chiqildi¹.

Zardushtiylik talimoti hamda “Avesto” haqda so’z yuritganimizda mashhur fransuz olimi Anketil Dyuperon haqda eslab o’tmog’imiz lozim bo’ladi. Dyuperon dastlab Prijdag Oser va Amersforda ruhoniy sifatida tehsil olgan. Biroq uning ibroniy, arab, fors va boshqa shu kabi boshqa tillarga bo’lgan qiziqishi sababli u butun umrini shu sohaga bag’ishladi. Uning qirollik kutubxonasiagi ilmiy izlanishlari qo’lyozmalar nazortchisi bo’lgan Abbat Saylerning etiborini tortadi. Keyinchalik Dyuperon Saylarning homiyligi ostida o’z izlanishlarini davom ettiradi. U dastlab “Avesto”ning tarkibi bo’lgan Vendidaning bazi parchalarini o’rganadi. Natijada Dyuperon Zardushtning boshqa asarlarini ham o’rganish maqsadida Hindistonga sayohat qiladi. U 1754-yil 2-noyabr kuni ekspiditsiya uchun askar sifatida yonlanadi. Ost-India kompaniyasi unga erkin harakatlanishga ruhsat bergenidan so’ng, olim o’z izlanishlarini keng ko’lamda davom ettiradi. 1771-yilda Zent-Avesto yani “Avesto sharhi” asari paydo bo’ladi. Dyuperon o’z faoliyati davomida ko’plab to’siqlar va qiyinchiliklarga uchragan bo’lishiga qaramay, u bu sohani yetuk mutaxassisiga aylandi. Dyuperonning “Zent-Avesto”dan tashqari yana bir nech asarlarini sanab o’tmog’imiz lozim bo’ladi: “Sharq qonunchiligi” (1778), “Hindiston haqda tarixiy va geografik tadqiqotlar” (1786) va boshqa asarlari shular jumlasidan. Dyuperoning Hindiston hamda Evropa bilan aloqasi 1798-yilda paydo bo’lgan va uning eng so’nggi yirik asari Upanishada (1804 “Hech qachon oshkor qilinmaydigan sirlar”) hisoblanadi. Dyuperoning yuqoridagi asarlari ham qaysidir ma’noda Zardusht va uning talimotiga bog’liqdir².

Avestoni o’rganishga o’z umrini bag’ishlagan olimlar qatorida Abayev Ivanovichni ham kiritmog’imiz lozimdir. Abayev sharqshunos filolog sifatida faoliyat olib brogan. Uni ilmiy izlanishlari ham Avestoga bog’liq bo’lib, olim bu borada ko’pgina izlanishlarni amalga oshirgan. Abayev zardushtiylik talimoti kelib chiqishini, inson maqsadi, ahloqiy masalalarga murojat qilish, inson mohiyatini bilish, o’tmishni shuningdek hozirgi kunni anglash va insoniyatning kelajakdagi rivojlanishi uchun mos nuqtani taxlil qilganligi bilan harakterlanadi. Uning tadqiqotlarini dolzarbliji o’tmishdagi falsafiy fikrlarni o’z ichiga olganligi bilan ajralib turadi. Abayev o’z tadqiqotlarida Avesto “Goh”laridagi mifologik unsurlar,

¹ G.T.Maxmudova., M.M.Ishoqov., B.B.Jalolov, Zardushtiylik xrestomatiyasi-T.: “Mumtoz so’z” 2017 4-b

² <http://www.britannica.com>



qolaversa zardushtiylikni Eron va O’rta Osiyodagi o’ziga xos jihatlariga alohida etibor qaratgan³.

Aleksandr Osipovich Makovelskiyning “Avesto” nomli monografiyasi ham jahon ahamiyatiga molik ilmiy asar hisoblanadi. Ushbu asarda “Avesto” haqdagi bazi mulohazalar tartibga solinib, yo’l-yo’lakay “Goh”lar haqida ham tarif berib ketilgan⁴. “Avesto” kitobining rus tilidagi tarjimasi yo’qligi tufayli Makovelskiyning ushbu asari SSR fanlar akademiyasi uchun alohida qiymatga ega deya etirof etiladi. Muallif “Avesto”ga aloqador bo’lgan adabiyotlardan foydalanish imkoniyatiga ega emas edi. Chunki Avestoga oid rus tilidagi manbalar yetarli emas edi. Kitob ustida ishslashda o’quvchilarning fikirlari bilan birgalikda tanqidlari ham muallif tomonidan ijobiy qabul qilingan. Makovelskiyning asarida Avestoni ilmiy o’rganish tarixi, avesto tarkibi, uning tili va alifbosi, zardushtiylarning dunyoqarashi, hamda Spitama Zardusht faoliyati haqdagi mavzularni o’z ichiga oladi⁵

Zardushtiylik dinini o’rganishda g’arb olimlaridan Britaniyalik tarixchi Kapadiyonи ham faol ishtrok etgan desak mubolag’a bo’lmaydi. Olim o’zining izlanishlari davomida zardushtiylik tamoillarini keng ommaga ochib beruvchi qimmatli asarni yaratdi. Ushbu asarning nomi “The teaching of zoroaster and the philosophy of the parsi religion” yani “Zardushtiylik talimoti va Parsi dinining falsafasi”. Ushbu asar Md.Lrep ismli olimning hammuallifligi bilan yozilgan⁶.

Yana shu o’rinda “Parsi” atamasiga to’xtalib o’tsak: Parsi bu, Hindistondagi zardushtiylikning izdoshlari. Olimlarning taxminiga ko’ra, bir guruh eronlik zardushtiylar arablar istelosidan keyin musilmonlar tomonidan diniy taqibga uchragan. Mutaxassislar Parsi guruhi Arab dengizi bo’ylab suzib, Gujaratga borib qo’ngan, deya fikr bildirishadi. Parsi Hindiston va Pokistonda etnik ozchilikdir. Bugungi kunda Hindistonda 60 ming Pokistonda esa 1400 ga yaqin Parsi isteqomad qiladi⁷.

Qadimgi dunyoning eng keng tarqalgan dini bo’lmish zardushtiylik amerikalik olimlarning ham nazaridan chetda qolmadi. Shunday olimlardan biri amerikalik filolog Stanliy Insler edi. Uning “Zardusht “Goh”lari” nomli ishi alohida ahamiyatga ega deya etirof etiladi. Ushbu asar hozirga qadar “Goh”lar tahliliga bag’ishlangan eng

³ Абаев В.И, Миф и история в Гатах Зороастра//историка философические исследования – Москва:. Наука, 1974

⁴ Abdullayev B.N. Zardushtiylik dini tarixiy-ijtimoiy asoslaring Avesta “Goh”lariida ifodalaniishi//tarix fanlari bo’yicha falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyasi aftoreferati T:. 2023

⁵ Маковельский А.О. Авеста. Баку. Издательство Академии наук Азербайджанской ССР, 1960,

⁶ S.A. Kapadia., Md. Lrcp. The teaching of zoroaster and the philosophy of the parsi religion.- London. 1905

⁷ <https://www.history.com/topics/religion/zoroastrianism>



yirik ilmiy asar sifatida o’z mavqeyini saqlab kelmoqda. Stanliy o’z asarida “Avesto “Goh”lari”ga quyidagicha tarif beradi: “Nisbatan qisqaligi va qadimgi Eron adabiyotining boshqa oldingi yoki zamonaviy asarlarning deyarli umuman yo’qligi sababli, Zardushtning “Goh”lari chindan ham o’ziga hos va bebahos yodgorlikdir”⁸. Stenliyning yuqoridagi fikirlari juda o’rinlidir. Nafaqat Eron tarixi balki O’rta Osiyo tarixini ochib berish uchun ham “Avesto “Goh”lari” asosiy manbadir.

Dunyodan qolishmagan holda O’zbekistondan ham bir qator olimlar yetishib chiqdi. Ularning say-harakatlari bilan qadimgi dunyodagi mavhum o’tmishta nazar tashlandi. So’ngi yillarda H.Homidiy, J.Yo’ldoshev, S.Nishonova, O.Musurmonova, N.Maxmudova, B.Jalolov kabi olimlar “Avesto” hususida tadqiqot ishlari olib borganlar. Yuqorida nomlari sanab o’tilgan olimlarning ilmiy izlanishlari tufayli zardushtiylik talimotiga oid yangidan-yangi asarlar yaratilib kelinmoqda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz lozimki, zardushtiylik dini va “Avesto” kitobini o’rganilishi dunyo miqyosidagi muhum masala hisoblanadi. Hali yuqorida nomlari keltirilmagan ko’plab dunyo olimlari xususan ularning bizga ma’lum bo’lgan va bo’lmagan juda ko’plab ilmiy asarlari mavjud. Bundan tashqari bu sohaga qiziqan va ilmiy izlanishlar olib borayotgan yosh tadqiqotchilarining soni yildan-yilga ortib borayotganligi quvonchli holatdir. “Avesto” kitobi O’rta Osiyo va shuningdek O’zbekiston tarixiga oid eng qadimgi yozma manba hisoblanadi. Uni o’rganish jarayonida qadimgi davlatchiliklar bilan bog’liq savollarga qisman bo’lsada javob topish mumkin bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. G.T.Maxmudova., M.M.Ishoqov., B.B.Jalolov, Zardushtiylik xrestomatiyasi-T.: “Mumtoz so’z” 2017
2. Абаев В.И, Миф и история в Гатах Зороастра//историка философические исследования – Москва:. Наука, 1974
3. Abdullayev B.N. Zardushtiylik dini tarixiy-ijtimoiy asoslarining Avesta “Goh”larda ifodalaniishi//tarix fanlari bo'yicha falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyasi aftoreferati T.: 2023
4. Маковельский А.О. Авеста. Баку. Издательство Академии наук Азербайджанской ССР, 1960,
5. S.A. Kapadia., Md. Lrcp. The teaching of zoraoster and the philosophy of the parsi religion.- London. 1905
6. <https://www.history.com/topics/religion/zoroastrianism>
7. Insler S. The Gathas of Zaratushtra- Leiden. 1975

⁸ Insler S. The Gathas of Zaratushtra- Leiden. 1975